



TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA PSIXOLOGNING O'QUVCHILARGA IJOBİY TA'SIR KO'RSATISH YO'NALISHLARI

Axmedov Baxodir Baxtiyorovich¹, Qahhorova Zaytuna
Abdug'ulom qizi²

^{1,2} Termiz Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi psixologi 3-sho'ba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590051>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 27- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Psixologlar tomonidan o'quvchilardagi ishonchni shakllantirish, Psixologik tasir yo'nalishlari, Tibbiyot o'quvchilarining o'ziga bo'lgan ishonchini namoyon qilish

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida, tibbiyot texnikumlarida ta'lim olayotgan o'quvchilarni kasbiga bo'lgan munosabatini o'rganishda to'g'ri ta'sir o'tkazish ba'zi bir yo'nalishlarni tanlash chog'ida psixologlar tomonidan fikrlari yaxshilab o'rganib chiqiladi. Tibbiyotda psixolog hodimining asosiy vazifasi va ta'siri insonning ruhiy xodisalariga, kechinmalari, sezgilariga, idrokiga, tasavvuriga, fikr , his tuyg'ulariga kira olishi hammaga ma'lumdur.

Tibbiy ta'lim o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarni talab qiladigan yo'nalishdir. Chunki bu kasb egalari shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy xolati o'zgargan shaxslar ya'ni bemorlar bilan munosabatda bo'lishadi. Shuni inobatga olib bemorlar bilan olib borilayotgan munosabat psixologiyasi turli tuman kasalliklarda turlicha bo'ladi.

Aniq bir misol. Ba'zi bir insonlar omma oldida qanchalik ko'p xarakat qilmasin, qanchalik ko'p chiqishlar qilmasin boshlanish oldida xayajonni his qilishadi. Psixologlar tomonidan o'quvchilarda o'zida ishonchni , jasoratni, omma oldida aniq va lo'nda gapirish, notiqlik qobilyatini shakllantirish barcha sohalarda ham muhim o'rin egallaydi ammo tibbiyot sohasida juda ham zarur desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki tibbiyotning barcha

sohalari va bosqichlari uchun amaliyot ijobiy ahamiyatga egadir.

Psixologik ta'sir inson xayotida juda ko'p uchraydigan ayniqsa o'qituvchi hodimlar, murabbiylar, raxbarlar, shifokorlar faoliyatida ta'limiy, tarbiyaviy, tibbiy , uslubiy jihatidan ijobiy imkoniyat yaratadi.

Bunda o'zgalarga ta'sir o'tkazishning muhim usuli, ularda ichki imkoniyatida ishonch tuyg'usini uyg'otish va shakllantirish hisoblanadi. Tibbiyot ta'limi tizimi o'quvchilari bemorning ruhiy jihatdan tetikligini, ta'minlamasdan turib bemorni samarali davolashga erisha olishmaydi. Bemorning ruhiyati sog'lom odam ruhiyatidan farq qiladi. Bu albatta, bemorning temperamentlariga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Asosiy qism: Psixologik ta'sir yo'nalishlari: Tibbiyot ta'limi sohasida



o'quvchilarning tashabbuskorligini, intilishini, o'z sohasida, ish joyida hamkasb va bemorlar bilan ish olib borishini to'g'ri shakillantirishda psixolog ijobiy ta'sir ko'rsatadi, binobarin o'quvchi yoshlar psixologik jihatdan ilmiy asoslangan bilimlar bilan tarbiyalanib bormog'i lozim. Psixologga tegishli bo'lgan psixologik ta'sirning bir necha yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi;

1. Maslaxatchi psixolog- bu munozara davomida sizning masalangiz haqida suxbatlashadi va maslaxat beradi.
2. Geshtalt terapevti-, shuningdek, suxbatlashadi va suxbat davomida sizning his tuyg'uyingizga murojaat qiladi.
3. Art terapevt - sizni muammoingizni chizishga va uni muhokama qilishga taklif qiladi
4. Akusherlik sohasida ayolga tug'ruq vaqtidagi kuchli og'riqda so'z bilan o'tkaziladigan psixologik ta'sir.
5. Jarrohlik sohasida bemorlarni operatsiyadan oldingi qo'rquvini yo'qotish maqsadida shifokor tomonidan o'tkaziladigan ruhiy ta'sir.
6. Onkologiya sohasida bemorlarni o'sma kasalliklarida va kimyo terapiyalarida bo'ladigan kuchli og'riqlarni bartaraf etishda o'tkaziladigan psixologik ta'sir.
7. Badan terapevti- sizning tanangizni u yoki bu muammoning qanday aks ettirilganligini his qilishingizga yordam beradi. Yondoshuvning farqi bir xil vaziyatni hal qilishning turli xil varyantlarini ko'rsatadi. Demak bemorni davolashga kirishayotgan shifokor uning qaysi temperamentga ta'luqli ekanligiga ham e'tibor qaratishi lozim. Bu esa bevosita

tibbiyotda psixologiyaning o'rni naqadar muhim ekanligini anglatadi.

Tibbiyot ta'limi tizimi o'quvcilarining o'ziga bo'lgan ishonchini namoyon qilish: Psixologlar tibbiyot o'quvchilarining o'ziga bo'lgan ishonchini namoyon qilishda ko'proq nutqingizni o'z oldingizga qo'ygan maqsadlarga erishish yo'lida qat'iy va aniqlik bilan boshlashni maslaxat berashadi. Psixologning yutug'i umumiy barcha sohalarida, omma oldida uchrashuv chog'ida aniq fikrlab, qat'iy ohangda ikki uch daqiqa gapira olsa bu uning birinchi chiqishidayoq eng yaxshi natijalarni beradi.

Xulosa: Psixologik ta'sir bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir. Xulosa qilib shuni ta'kidlash, joizki tibbiyot ta'limida psixologning o'quvchilarning psixikasini chuqurroq o'rganish maqsadida, kuzatish, eksperiment, suhbat, tarjimayi holini o'rganish usullari bilan bir qatorda bir qancha test tizimlaridan ham foydalanadi. Haqiqatdan ham tibbiyot hodimlari va psixologlar har kuni ertalabdan kechgacha qanchadan-qancha bemorlar, hodimlar bilan muomalada bo'lashadi. Uning kayfiyati va ish qobiliyati ana shu muomalaga bog'liq.

Tibbiyot texnikumlari o'quvchilarini o'z kasbiga ishonchli munosabatni shakillantirishda psixologlarni o'rni muxim ahamiyat kasb etadi.

Har bir o'rta tibbiyot ta'limi tizimida o'quvchi-yoshlarning va hodimlar faoliyatda tibbiy psixologiya va deantalogiyadagi dolzarb masalalar yuzasidan keltirilgan maslaxatlar ijobiy ta'sir ko'satadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y. M. Fayziev . Umumiy va tibbiy psixologiya 2012
2. E.G. G'oziyeva . Psixologiya 2017
3. G.I.Ivanov. Umumiy psixologiya.